ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 18-mart | 50-1-22-Q/25 | Izboskan tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-185-son farmoni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-185-son farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha tuman komissiyasining namunaviy tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida PQ-5216-son qarori ijrosini Izboskan tumanida ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-185-son farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha tuman komissiyasining namunaviy tarkibiga o‘zgartirish kiritilsin.

3. Tuman hokimligining Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyasi yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **E.R.Karimov**

Izboskan tumani hokimining
2025-yil 18-martdagi
50-1-22-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha tuman komissiyasining

TARKIBI

1.	E.R.Karimov	—	Tuman hokimi, *komissiya raisi*
2.	O.B.Kenjaboyev	—	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori, *komissiya raisi o‘rinbosari*
3.	B.N.Saidkamalov	—	Tuman prokurori, *komissiya a‘zosi*
4.	Sh.Sh.Abduraxmonov	—	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
5.	M.N.Inobiddinov	—	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
6.	F.B.Mirzaqosimov	—	Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i, *komissiya a‘zosi*
7.	M.D.Abdurashidov	—	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi mas’ul xodimi, *komissiya kotibi*

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.